
“YASHIL MAKON”NI BIRGA YARATAMIZ!



Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi mamlakatimizda bo‘lgani kabi, Qo‘shtepa tumanida ham keng quloch yoymoqda. O‘tgan yil kuzda uning birinchi bosqichi doirasida keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlari boshlab yuborilgan edi. Ob-havoning qulay kelgani tufayli ko‘chat ekishga fevral oyidayoq kirishildi.

Ayni kunlarda tumanimizda yashil maydonlar barpo etish, bog‘-rog‘ va ko‘kalamzor hududlarni ko‘paytirish jadal ketmoqda.

Bugun, ushbu loyiha doirasida 45-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida 16 sotix maydonga intensiv yong‘oq, bodom kabi 150 tup mevali hamda manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi.



Ushbu tadbirda tuman IIB boshlig‘i, 3-sektor rahbari S.Abdullayev va DXX Marg‘ilon shahar bo‘limi boshlig‘i Sh.Xatamovlar ham ishtirok etishdi.

Ushbu ekilayotgan nihollarning kelgusida bo‘y cho‘zib, haqiqiy daraxtlarga aylanishi uchun maktabdan mas‘ullar biriktirilib, ko‘chatlarning parvarishi nazoratga olindi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-03-04 14:32:10